

## «TASDIQLAYMAN»



Toshkent shahar statistika  
boshqarmasi boshlig'i

L.T. Mirsoatov

"may" 2024 yil

### Sanoat va energetika statistikasi boshqarmasi NIZOMI

#### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Toshkent shahar statistika boshqarmasi Sanoat va energetika statistikasi bo'limining (keyingi o'rirlarda Bo'lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqva majburiyatlar, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdag'i "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 114-sun qaroriga muvofiq qayta tashkil etilgan va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (keyingi o'rirlarda Statistika agentligi deb ataladi) markaziy apparatining tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

3. Bo'lim o'z faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to'g'risida"gi nizomga, mazkur nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo'lim o'z faoliyatini boshqarmaning tarmoq bo'limlari va tuman (shahar)lar statistika bo'limlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Xalqaro darajada tavsiya etilgan Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (GSBPM – The Generic Statistical Business Process Model) talablarini milliy statistika tizimiga joriy qilish maqsadida ishlab chiqilgan Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishning milliy modelining barcha bosqichlarida bevosita va bilvosita ishtiroy etadi.

6. Bo'lim o'z faoliyatini boshqarma boshlig'i rahbarligida amalga oshiradi. Bo'lim o'z vakolati doirasiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma boshlig'i o'rinosariga bo'yusunadi.

#### 2-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

7. Quyidagilar Bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) sanoat statistikasi bo'yicha yagona siyosatni ishlab chiqish va bajarish, statistikani tashkil qillishning samarali tizimini ta'minlash va davlat statistika tizimini muvofiglashtirish va funksional tartibga solish sohasida;

Statistika dasturi, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, Statistika boshqarmasining ish rejalarini o'z vaqtida shakllantirilishida ishtiroy etish; statistik ma'lumotlar foydalanuvchilari talabini o'rgangan holda uzoq muddatli maqsadlar va yo'nalishlar bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni joriy etib borish;

Statistika dasturining sanoat va energetika statistikasiga oid qismi bo'yicha takliflar ishlab chiqish va taqdim etish;

sanoat va energetika statistikasi sohasida rasmiy statistika prinsiplari va xalqaro standartlarga javob beradigan yagona statistika uslubiyotiga rioya etish, xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO) hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini joriy etish;

ishlab chiqiladigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalariga Bo'lim vakolati doirasidagi takliflar ishlab chiqishda ishtirok etish.

*b) xalqaro standartlarga javob beradigan yagona statistik uslubiyotni va davlat statistika kuzatuvi shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish sohasida:*

sanoat va energetika statistikasi ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlashning zamonaviy metodologiyasi va metodikalarini keng joriy etish yo'li bilan statistik kuzatuvlar tizimini qabul qilingan xalqaro amaliyotga yanada moslashtirishni amalga oshirish;

sanoat va energetika statistikasi bo'yicha statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlashga kiritish va amaliyotga joriy etish, statistik kuzatuvlar o'tkazish usullarini aniqlash;

statistika sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda boshqarma vakolati doirasida ishtirok etish;

sanoat va energetika statistikasi sohasida xolis, sifatli va dolzARB hisobot ma'lumotlarini tayyorlashni muvofiqlashtirish va idoraviy kuzatuvlar shakllarini kelishishda ishtirok etish;

foydanuvchilarning statistik ma'lumotlarga bo'lgan talabiga muvofiq, sanoat va energetika statistikasi sohasi bo'yicha rivojlanayotgan xorijiy tajribani o'rGANISHNI umumlashtirish va tarqatish;

sanoat va energetika statistikasi sohasida xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlar reyting baholarini tuzish uchun foydalaniadigan axborot manbalarini o'rGANISHNI tashkil etish, ular asosida shakllantiriladigan va tarqatiladigan statistik ko'rsatkichlar tarkibini yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

sanoat va energetika statistikasi bo'yicha statistika hisobotlari tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash va hisobotlarni tuzish tartibi bo'yicha yo'riqnomasi va qo'llanmalar ishlab chiqish.

*d) sanoat va energetika statistikasiga oid hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, to'plash saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish sohasida:*

Statistika dasturining sanoat statistikasiga oid qismini bajarilishini ta'minlash.

sanoat statistikasiga oid statistika hisobotlarini elektron ko'rinishda zarur hollarda qog'oz ko'rinishida yig'ish, so'rovlarini va boshqa kuzatuvlarni tashkil etish;

sanoat va energetika statistikasiga oid ko'rsatkichlarining statistik hisobini yuritish, respublika bo'yicha muhim jarayonlarining birlamchi statistik tahlilini amalga oshirish;

statistik hisobot ko'rsatkichlarini tezkorligi, ishonchliligi va holisligini hamda statistik ma'lumotlarning shaffofligi va ochiqligini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

xo'jalik yurituvchi subyektlarga sanoat va energetika statistikasiga oid statistika hisoboti ko'rsatkichlarini ishonchli taqdim etishda har tomonlama ko'maklashish;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlash;

sanoat va energetika statistikasi sohasiga oid statistik ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;

qonunchilikka muvofiq, bo'lim ish faoliyatida shakllangan arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish ishlarini amalga oshirish.

*e) davlat organlari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar va aholini belgilangan tartibda sanoat statistikasiga oid axborotlar bilan ta'minlash sohasida:*

milliy va xorijiy foydanuvchilarning keng ommasi uchun sanoat statistikasiga oid ko'rsatkichlarni maksimal darajada shaffofligi va oshkorligini, xalqaro statistik to'plamlar uchun tayyorlanishini ta'minlash;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun sanoat sohasida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma'lumotlar va press-relizlar tayyorlash;

sanoat va energetika sohasini tavsiflovchi tezkor va sifatlari statistik ma'lumotlarni tayyorlashni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlari ijrosi yuzasidan boshqarma vakolati doirasida yillik, choraklik va oylik statistik hamda tahliliy materiallarni tayyorlashda ishtirok etish;

sanoat va energetika statistikasiga oid statistik kuzatuvlar va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlariда ishtirok etish.

6. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

sanoat va energetika statistikasi sohasi uslubiyati, statistika ishlari tashkil etish va ularni bajarish masalalari bo'yicha Statistika agentligi tarkibiy bo'linmalari va hududiy statistika organlariga yordam ko'rsatadi; jismoniyva yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda murojaat egalariga javoblar tayyorlaydi;

Boshqarma rahbariyatining topshiriqlari va foydalanuvchilarining so'rovlariga asosan sanoat va energetika statistikasi bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

bo'limning uslubiy, iqtisodiy, tashkiliy va statistik ishlari rejalarini shakllantiradi va ularning ijrosini ta'minlaydi;

bo'limning vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Boshqarma rahbariyati ko'rib chiqishi uchun tahliliy va boshqa materiallarni tayyorlaydi;

sanoat va energetika statistikasi sohasi bo'yicha xalqaro normalar va talablarga javob beradigan statistik uslubiyotni ishlab chiqadi va statistika kuzatuvlari shakllarini statistik ma'lumotlarni shakllantirish jarayoniga joriy etadi;

davlat idoralari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar va aholini belgilangan tartibda sanoat statistikasiga oid statistik malumotlar bilan ta'minlaydi;

bo'lim va uning tarkibiy bo'limlari ish uslubini takomillashtirib boradi, fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi, boshqarma xodimlari tomonidan o'zlariga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatlari bajarilishi bo'yicha mas'uliyatini oshirib boradi;

Boshqarmaning tarmoq va hududiy bo'linmalari bilan birgalikda sanoat va energetika statistikasi sohasida axborotlarni shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

Statistika dasturining sanoat va energetika statistikasi qismi bo'yicha vazifalar ijrosini ta'minlaydi;

hududiy statistika idoralari tomonidan, sanoat va energetika statistikasi sohasiga oid statistika kuzatuvlarini yagona statistika uslubiyoti asosida tashkil etish ishlari muvofiqlashtiradi;

sanoat va energetika sohasiga oid statistika hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish va elektron hujjat aylanishi tizimini joriy qilish ishlari tashkil etadi, bu yo'nalishda hududiy statistika organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, sanoat va energetika statistikasi asosiy ko'rsatkichlarining takomillashtirilgan ma'lumotlar bazasini yuritadi;

Bo'lim o'ziga yuklatilgan boshqa funksiyalarni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

### **3-bob. Bo'limning huquqlari va majburiyatları**

7. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Tuman (shahar) statistika bo'limlaridan o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

sanoat va energetika statistikasi sohasida ishlarni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha agentlik rahbariyatiga takliflar kiritish;

statistika kuzatuvi shakllarini o'zgartirish va ularni taqdim etish tartibi, statistika kuzatuvlarini o'tkazish usullari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining idoraviy statistik kuzatuv shakllari bo'yicha takliflar berish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan va boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda ularning vakolatxonalarini va filiallaridan) statistika hisobotlarini belgilangan tartibda olish hamda ulardan statistika maqsadlarida foydalanish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan sanoat va energetika statistikasiga oid ishlarni olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek, ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni so'rash va olish;

sanoat va energetika sohasiga oid statistika kuzatuvlarining metodologiyasi va tashkil etilishi, shuningdek, rasmiy statistik axborotlar bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot va tushuntirish ishlarni olib borish;

sanoat va energetika statistikasiga oid ma'lumotlarning to'liqligi, ishonchliligi va xolisonaligini ekspertizadan o'tkazish;

sanoat va energetika statistikasi sohasidagi statistika ma'lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

sanoat va energetika statistikasiga oid masalalar yuzasidan xalqaro statistika tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, seminar va yig'ilishlarda, shuningdek, xalqaro seminar va yig'ilishlarda ishtiroy etish;

statistika dasturi, Statistika ishlarni ishlab chiqarish dasturi, Statistika agentligining ish rejalar, boshqarma ish rejasining tuzilishi va mazmuni bo'yicha agentlik rahbariyatiga takliflar kiritish;

boshqarma vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha agentlik boshqarmalari va bo'limlari bilan hamkorlik qilish.

#### **8. Bo'lim quyidagi majburiyatlarga ega:**

o'ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

statistika prinsiplariga amal qilish, ilg'or xalqaro amaliyatga muvofiq, foydalaniyotgan usullar va metodikalarni doimiy ravishda takomillashtirish;

Bo'lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta'minlash.

#### **4-bob. Bo'limning tuzilmasi**

##### **9. Bo'limning tuzilmasi o'z ichiga :**

Bo'lim boshlig'i, bo'lim boshlig'i o'rinnbosari bosh va yetakchi mutaxassislar hamda 1-toifali mutaxassislar kiradi.

Bo'lim boshlig'i va bo'lim boshlig'i o'rinnbosari va mutaxassislar boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

##### **1. Bo'lim boshlig'i:**

10. Bo'lim mutaxassislarning ishini tashkil qilish, bo'limga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishini, ijro va mehnat intizomining holati uchun shaxsan javob beradi;

Bo'limda lavozimlarga tavsija qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish va jazolash choralar bo'yicha takliflarni puxta ishlab chiqish va rahbariyatga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

boshqarmaning ish rejasida ko'zda tutilgan masalalarni o'rganilishini va chora tadbirlarining amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Bo'lim xodimlari o'rtasida ularning lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, vazifalarni taqsimlaydi;

Boshqarmaning yig'ilishlari va majlislarida, shuningdek, Statistika agentligi rahbariyatining topshirig'iga binoan, boshqarma vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha idoralararo ishchi guruhi va kengashlar faoliyatida ishtirok etadi;

Boshqarma boshlig'i va uning o'rnbosarlarining topshiriqlariga muvofiq, tahliliy va umumlashtiruvchi materiallarni tayyorlash, qo'yilgan vazifalarni yanada samarali amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini ta'minlaydi;

Boshqarmaning joriy va istiqbolli ish rejalariga muvofiq boshqarma vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tahliliy va boshqa materiallarni o'z vaqtida, tizimli asosda tayyorlanishini ta'minlaydi;

Bo'lim ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to'ldirish choralarini ko'radi;

Bo'lim xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo'riqnomalar berish bo'yicha yig'ilishlari o'tkazadi;

ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o'z vaqtida ijro etilishini qat'iy nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil qilish, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo'yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta'minlaydi;

o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar va ma'lumotlarni boshqarma bo'linmalari va tuman statistika organlaridan, idoraviy tashkilotlardan belgilangan tartibda so'raydi va oladi.

## **2. Bo'lim boshlig'i o'rnbosari:**

11. Bo'lim faoliyatiga xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO) hamda ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishda ishtirok etadi;

funksional vazifalariga muvofiq ma'lumotlar, materiallar, takliflar va hujjatlar loyihibarining sifatlari, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

bo'lim mutaxassislari tomonidan tahliliy jadvallar, press-relizlar, ma'ruzalar va statistik to'plamlarni tayyorlanishini, xalqaro tashkilotlar savolnomalarini to'ldirishini, shuningdek, bo'limga yuklangan vazifalar bo'yicha qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini sifatlari va o'z vaqtida tayyorlanishini tashkil qiladi;

sanoat va energetika statistikasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik, obyektivligi, to'liqligi va tizimliligin ta'minlaydi;

12. Bo'lim boshlig'i yo'qligida uning vazifalari bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga oladi..

Bo'lim faoliyati bo'yicha axborotlarni, Statistika dasturida belgilangan ishlarni belgilangan muddatlarda yig'ish, qayta ishlash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va chop ettirishni ta'minlaydi;

sanoat bo'yicha tizimli statistik kuzatuvalar axborotlarini elektron shaklda taqdim etish va elektron xujjat aylanishi tizimini joriy qilish ishlarni tashkil etish, bu yo'nalishda hududiy statistika bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtirish.

Statistika dasturiga muvofiq, o'ziga biriktirilgan davlat statistik hisobotlar bo'yicha statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, tahlil etish, saqlash va nashrga tayyorlash ishlarni tashkil etadi;

Bo'lim faoliyati bo'yicha hududiy bo'limlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil qilish ishlarni olib boradi;

hududiy statistika bo'limlariga hamda vazirlik va idoralarga Sanoat va energetika statistikasi bo'yicha axborotlarni shakllantirishda uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi; belgilangan tartibda o'ziga yuklatilgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

## **2. Bo'lim bosh mutaxassis:**

Statistika agentligi va boshqarmaning ish rejalarida bo'lim faoliyatining tegishliligi bo'yicha ko'zda tutilgan masalalarni o'rganilishini va chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

byulletenlar, to'plamlar, ma'ruzalar va iqtisodiy yozishma materiallar uchun statistik ma'lumotlar tayyorlaydi;

muhim statistik indikatorlarni baholanishini va hisob-kitobini yuritilishini ta'minlaydi;

kuzatuv shakllari va yig'ma tahliliy jadvallar namunasi, ko'rsatkichlarni hisoblash metodikasi, ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish va takomillashtirish uchun texnik topshiriqlarni tayyorlash, statistik instrumentariylarni shakllantirilishini, byulletenlar, to'plamlar, ma'ruzalar va iqtisodiy yozishma materiallar uchun statistik ma'lumotlar tayyorlanishini tashkil etadi;

statistik ma'lumotlarni sharhlash, statistik kuzatuv blankalarini to'ldirish masalalari, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash uslublari, statistik hisob-kitoblar o'tkazish, olingan ma'lumotlarning ishonchiligidan o'tkazish bo'yicha maslahatlar beradi;

statistika kuzatuvlarining elektron ma'lumotlar bazasi saqlanishini va asosiy statistik ko'rsatkichlar bo'yicha dinamik qatorlar yuritilishini ta'minlaydi;

bo'lim boshlig'ining topshirig'iga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarni, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi, ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha loyihami tayyorlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq, joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

## **3. Bo'lim yetakechi mutaxassis, 1-toifali mutaxassis:**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, Statistika agentligi nizomiga, Statistika agentligi qaror va buyruqlariga, "Sanoat statistikasi boshqarmasi to'g'risida"gi nizomga hamda mazkur yo'riqnomaga asoslanib ish yuritadi, shuningdek, loyihamar, topshiriq va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirop etadi;

bo'lim faoliyatiga xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO) hamda ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishda ishtirop etadi;

funksional vazifalariga muvofiq ma'lumotlar, materiallar, takliflar va hujjat loyihamarining sifatlari, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

sanoat va energetika statistikasi sohasida maqsadli dasturlarning amalga oshirilishi bo'yicha oylik, choraklik va yillik statistik malumotlarni hamda tahliliy jadvallar, press-relizarlar, ma'ruzalar, statistik to'plamlar va xalqaro tashkilotlarning savolnomalari uchun ma'lumotlarni tayyorlashda qatnashadi;

statistika hisobotlarini belgilangan muddatlarda sifatli taqdim etilishini nazorat qiladi, olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi, ular asosida jamlanma ma'lumotlar jadvallarini shakllantiradi, asosiy statistik ko'rsatkichlarni hisoblash ishlarni amalga oshirishda ishtirop etadi;

byulletenlar, to'plamlar, ma'ruzalar va iqtisodiy yozishma materiallar uchun statistik ma'lumotlar tayyorlashda ishtirop etadi;

statistika hisobotlari shakllari va kuzatuv so'rovnomalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirop etadi;

sohaga oid muhim indikatorlarni baholashda va hisob-kitobini yuritishda ishtirok etadi; statistik ma'lumotlarni sharhlash, statistik kuzatuv blankalarini to'ldirish masalalari, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash uslublari, statistik hisob-kitoblar o'tkazish, olingan ma'lumotlarning ishonchlilikini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha maslahatlar berishda ishtirok etadi;




bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Statistika agentligi mutaxassislariga, hududiy boshqarmalarga, tashkilot va korxonalarga maslahat yordamini ko'rsatadi;

bo'lim boshlig'ining topshirig'iga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni va ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga muvofiq takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

ish yuritishni olib boradi, bo'limda hujjatlarning o'tish tartibini tashkil qiladi, hujjatlarni arxivda saqlash uchun tayyorlaydi, o'z vaqtida topshirilishini ta'minlaydi va shaxsan javobgar bo'radi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq, joriy ishlarni bajaradi;  
vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Sanoat va energetika statistikasi bo'limi nizomi xodimlar bilan tanishtirilgani

|   |                                  |                                                                                               |                                                                                     |
|---|----------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Bo'lim boshlig'i                 | G. A. Orinbayeva                                                                              |  |
| 2 | Bo'lim boshlig'i<br>o'rinnbosari |             |  |
| 3 | Bosh mutaxassis                  | S. X. Shadiyev                                                                                |  |
| 4 | Yetakchi mutaxassis              |  16.08.2024 |  |
| 5 | 1-toifali mutaxassis             | Sh. B. Karimov                                                                                |  |